



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA BANK TIZIMINING ROLI

***Nazarov Qilich Xolmuradovich***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrası dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori*

[\*Kilichnazarov447@gmail.com\*](mailto:Kilichnazarov447@gmail.com)

***Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrası dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori*

[\*sherxontuychiyev@gmail.com\*](mailto:sherxontuychiyev@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida muhim o'rin tutadi, ular bo'sh turgan pul mablag'larini jamlab, ularni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltirish bilan ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi. Tijorat banklari jismoniy shaxslarning va yuridik shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qaytarishlilik, to'lovlilik, muddatlilik, ta'minlanganlik tamoyillari asosida jalb qilib, iqtisodiyot tarmoqlariga kredit sifatida joylashtiruvchi yuridik tashkilotdir.

**Kalit so'zlar:** tizim, islohot, bozor, raqobat, kredit, birlamchi bozor, strategiya, infratuzilma, loyiha, aktiv, kapital, deposit, kredit portfeli.

### **Kirish**

Tijorat banklari iqtisodiyot tarmoqlarini kreditlash va ularni investitsiyalash orqali iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi. Ular o'z aktivlarini milliy iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltirib, ishlab chiqarish, investitsiya va iste'mol jarayonlarini qo'llab quvvatlaydi. Shuning uchun ham mamlakat bank tizimini rivojlantirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishidan biri deb qaraladi.[1]

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Tijorat banklarida kredit faoliyatning samaradorligi va ularni rivojlantirish hamda baholash masalalari bilan ko'plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan. Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik iqtisodchi olimlardan: G.S. Panova, I.Z. Yarigina, A.I. Bolonin, N. P.Nazarchuklar o'z ilmiy ishlarida tadqiqotlar olib borishgan. [2]

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Omonov, T.M.Qoraliev, Sh.Abdullaevalarning ilmiy ishlarida kreditlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilingan.[3]

G.S. Panova, I.Z. Yarigina, A.I. Bolonin va b. “Bank tizimining holati har doim, barcha mamlakatlarda mamlakatning rivojlanish darajasi, uning iqtisodiyoti barqarorligi ko‘rsatkichidir. Darhaqiqat, bank tizimi (mamlakat iqtisodiy tizimining bir qismi sifatida) ko‘tarilish va pasayish, turg‘unlik va inqiroz davrlarini yengib o‘tib, siklik tarzda rivojlanadi” degan fikrni bildirishadi.[4]

N.P.Nazarchuk, o‘z tadqiqotida “Kredit tizimining fundamental (asosiy) bo‘g‘ini - bu kreditning o‘zi bo‘lib, u kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabat, shuningdek uning harakat chegaralari va qonunlarini ifodalaydi. Ushbu bo‘g‘in kreditning muhim xususiyatlarini aks ettiradi va boshqa elementlarning faoliyatini belgilab beradi. U, shuningdek, kredit munosabatlari subyektlarining faoliyatini ham qamrab oladi” degan fikrni bildirishadi.[5]

A.A.Omonov, T.M.Qoralievlar “Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlani shining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak - kapital muomalasi va aylanishi yotadi” degan fikrni bildirishadi.[6]

Sh.Z.Abdullaeva “Kreditning mohiyatiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, kredit - iqtisodiy kategoriya bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning aniq bir ko‘rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli, qiymatning xarakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir” deb keltiradi.[7]

### **Tadqiqot maqsadi va usullari**

Mazkur tadqiqot doirasida ilgari surilgan muammoni o‘rganishda asosiy usullar sifatida tahliliy baholash, mantiqiy yondashuv va induktiv fikrlash usullari qo‘llanilib, ular orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.[8]

### **Tahlil va natijalar**

«2020-2025 yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi» doirasida ustuvor investitsiya loyihalariga keng ko‘lamli mablag‘lar yo‘naltirildi.


O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, kreditlar asosan sanoat korxonalarini texnik jihatdan qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishga qaratildi.[9]

2025 yilda bank islohotlari, davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish va transformatsiya qilish jarayonlari faollashib, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish tizimi (xususan, «loyihalar fabrikasi») rivojlantirildi.[10]

Bu esa, o‘z navbatida, bank tizimining makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Buning sababi shundaki, tijorat banklarining qisqa muddatli kreditlari hisobidan ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatining uzluksizligi ta‘minlansa, ularning uzoq muddatli kreditlari hisobidan iqtisodiyotning real sektori korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish amalga oshiriladi.[11]

Xususan, 2024 yilda iqtisodiyotdagi barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar miqdori 493,6 trln so‘mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan real hisobda 27,6 foizlik o‘sishi, markazlashmagan investitsiyalar hajmi 2023 yilga nisbatan 32,8 foizga o‘sishi (441,8 trln so‘m) hisobiga ta‘minlandi.[12]

## Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'zgarish



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari


Shuningdek, hisobot yilida markazlashgan investitsiyalarning jami o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 2023 yildagi 14 foizdan 10,5 foizgacha qisqargan bo'lsa, markazlashmagan investitsiyalar ulushi 86 foizdan 89,5 foizgacha oshgan.

Markazlashgan investitsiyalar hajmining real o'sishida sekinlashish kuzatilgan bo'lsada, uning tarkibidagi tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan qilingan investitsiyalar qariyb 1,6 barobarga oshgan.[13]

Markazlashmagan investitsiyalarning o'sishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hajmining 59 foizga oshganligi hisobiga shakllangan.

2024 yilda iqtisodiyot tarmoqlariga hamda aholi ehtiyojlari uchun 287,1 trln so'm (2023 yilga nisbatan 35,8 trln so'mga ko'p) miqdorida kreditlar ajratildi.

O'z navbatida, iqtisodiyotdagi umumiy kredit qo'yimlari qoldig'i esa o'tgan yilga nisbatan 14 foizga o'sib, 566,2 trln so'mni tashkil etdi. Bunda, tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kredit qo'yimlari qoldig'i 389,8 trln so'mni, aholiga ajratilgan kredit qo'yimlari qoldig'i 176,3 trln so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan mos ravishda 11,8 hamda 18,9 foizga oshgan. [14]



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Kreditlarning 26,4 foizi sanoatga, 13,4 foizi savdo va umumiy ovqatlanishga, 7,1 foizi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, 2,8 foizi qurilishga hamda 2,5 foizi transport va kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

2024 yilda aholiga 104,7 trln so'm kredit mablag'lari ajratilgan bo'lib, ushbu kredit mablag'larining 43,8 foizini mikroqarz, 17,7 foizini iste'mol krediti, 16,6 foizini mikro kreditlar, 16,3 foizini ipoteka kreditlari tashkil etdi.[15]

**Xulosa qiladigan bo'lsak**, Respublikamiz bank tizimi iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlashda muhim rol o'ynayapti, ammo quyidagi muammolar makroiqtisodiy barqarorlikka o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, davlat ulushining yo'qoriligi, kapital yetarliligi, moliya bozorlarining yetarli rivojlanmaganligi, raqobatning cheklanganligi (xususiyl banklarning soni ortayotgan bo'lsada bozor ulushining katta qismi davlat banklarida qolmoqda).

2024 yil boshida bank aktivlarining 68 foizi, kreditlarning esa 71 foizi davlat banklariga to'g'ri keladi, 2025 yilga kelib kreditlarning 69 foizi davlat banklari tomonidan berilgan, bulsa bank tizimidagi raqobatning yetarli emasligidan dalolat beradi.

Kredit foiz stavkalarining yo'qoriligi, y'ani, 2024yil oxirida o'rtacha kredit foiz stavkasi 24,9 foizni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish maqsadida, davlat banklari ulushini kamaytirish, strategik investorlarni jalb etish, depozit-kredit mutanosibligini ta'minlash, ya'ni aholi omonatlarini jalb qilish uchun foiz stavkalarini oshirish, uzoq muddatli depozitlarni rag'batlantirish, foiz stavkalarini pasaytirish, berilgan kreditlar sifatini yaxshilash (NPLni kamaytirish), qishloq hududlarida bank xizmatlarini kengaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026"*, Jan. 28, 2022. National Database of Legislation.
- [2] *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 "Uzbekistan–2030 Strategy"*, Sept. 11, 2023. National Database of Legislation.
- [3] Sh. Mirziyoyev, *Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis*, Dec. 26, 2026. Available: [president.uz/uz/lists/view/8834](http://president.uz/uz/lists/view/8834)
- [4] Central Bank of the Republic of Uzbekistan, *Official statistical data*. Available: [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
- [5] A. A. Omonov and T. M. Qoraliev, *Pul va banklar* [Money and Banking]. Tashkent, Uzbekistan: Iqtisod-Moliya, 2018.
- [6] Sh. Z. Abdullaeva, *Kredit va kreditlash amaliyoti* [Credit and Lending Practice]. Tashkent, Uzbekistan: Iqtisod-Moliya, 2017.
- [7] G. S. Panova *et al.*, *Banks and Banking Business in the Global Economy*. Moscow, Russia: MGIMO University, 2020.
- [8] N. P. Nazarchuk, *Banking* [Electronic resource]. Tambov, Russia: TSTU Publishing Center, 2023.
- [9] World Bank, *Global Financial Development Report 2022*. Washington, DC, USA, 2022.
- [10] International Monetary Fund, *Financial Access Survey 2023*. Washington, DC, USA, 2023.
- [11] Asian Development Bank, *Uzbekistan: Banking Sector Assessment*, Manila, Philippines, 2021.
- [12] OECD, *Financial Markets Trends 2022*. Paris, France, 2022.

- [13] S. Mishkin, *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*, 11th ed. Boston, USA: Pearson, 2016.
- [14] F. S. Mishkin and S. G. Eakins, *Financial Markets and Institutions*, 9th ed. Boston, USA: Pearson, 2018.
- [15] J. Hull, *Risk Management and Financial Institutions*, 5th ed. Hoboken, NJ, USA: Wiley, 2018.